

BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

Mamatqulova Dilobarxon Axrorrovna

Farg'ona viloyati Furqat tumani

1- IDUMning oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy metodlar yordamida biologiya fanini o'qitishning xususiyatlari tahlil qilib o'tildi. Biologiyani o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida didaktika bilan uzviy bog'liqdir. Biologiya o'qitish metodikasi maktab biologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim va tarbiyaning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarining nazariy va amaliy muammolarini ishlab chiqadi. Biologiyani o'qitish metodikasi psixologiya bilan chambarchas bog'liq, chunki u bolalarning yosh xususiyatlariga asoslangan. Biologiya darslarida o'quvchilarni to'laqonli o'quv-bilim jarayonining subyektiga aylantirish yo'llari qamrab olinishi darkor.

Kalit so'zlar: metod, uslub, o'qitish metodikasi, diktatik usullar, biologiya, botanika, zamonaviy metodlar, pedagogikayondashuv, psixologik holat.

Аннотация: В данной методической рекомендации проанализированы особенности преподавания биологии с использованием современных методов. Методика преподавания биологии как педагогической науки неразрывно связана с дидактикой. Опираясь на уникальные особенности школьной биологии, методика преподавания биологии разрабатывает теоретические и практические проблемы содержания, форм, методов и средств обучения и воспитания. Методика преподавания биологии тесно связана с психологией, так как основана на возрастных особенностях детей. На уроках биологии необходимо осветить способы превращения ученика в субъекта полноценного образовательного процесса.

Ключевые слова: метод, стиль, методика обучения, дидактические методы, биология, ботаника, современные методы, педагогика, психологическое состояние.

Bugungi kunda rivojlanayotgan umumiy o'rta ta'lim tizimida biologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash muammosi ta'lim miqyosida dolzarb hisoblanadi. Biologiyaning rivojlanishi va uning yutuqlarini jamiyat hayotiga tatbiq etilmoqda. Binobarin, maktabda biologik ta'limning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Yosh mutaxassisni tayyorlash jarayonida o'quvchi o'qituvchining bevosita rahbarligida, ta'lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olamning qonuniyatlari, hodisa va voqealarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallaydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar uchun o'quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o'qitishdan ko'zda tutilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi. O'qituvchi uchun ta'lim jarayoni o'quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog'langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o'zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi.

Darsda o'quvchilarning bilish faoliyati va o'qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg'un ravishda tashkil etilgandagina o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq.

Ta'lim dargohlarida Biologiya fani o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini, ya'ni dunyo va inson, inson va olam o'rtasidagi munosabatlar haqidagi eng umumiy qarashlar tizimi shakllantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, u shaxsning hayotiy dasturini, e'tiqodini, qiziqishlarini belgilaydi. Biologiyani o'qitish jarayonida tabiiy fanlarning hozirgi holatiga muvofiq ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish voqelikni yaxlit idrok etishning tabiiy ehtiyoji bilan bog'liq holda falsafiy muammolarga qiziqishi ortgan o'rta maktab o'quvchilari uchun alohida ahamiyatga ega.

Maktab biologiyasi boshqa fanlarga o'xshamagan holda, tabiat hodisalarga tizimli va tarixiy yondashuv birligini bilim kuchini ko'rsatishga yordam beradi.

Biologiya o'qitish jarayonida maktab o'quvchilarning dialekt tafakkurini rivojlantirish bilan birgalikda ularda organik dunyoning ilmiy manzarasi, hayotning tarixiyli va uning harakat tizimidagi o'rni, qarama-qarshi bilish usullari bilan ochib beriladi. Biologiya maktab tizimidagi tabiatshunoslik siklining yetakchi fanlardan biridir, chunki u shaxsning shakllanishida va rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda o'quvchilar, tinglovchilar aqliy ta'limini rivojlantirish uchun ta'lim va tarbiya birligiga beriladigan bilimning ilmiy bo'lishi, bilimning sistemali va izchil bo'lishi barobarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilmoqda.

Biologiya fanlarini o'qitishda tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda innovatsion texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion texnologiyalaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtdan unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempiramenti bo'yicha bilim olish, o'qituvchida esa, o'quvchilar bilan tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati

vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi. Biologiya fanlarini o'qitish tizimida tashkil etiladigan o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me'yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan.

Biologik ta'limning roli insoniyat hayotida katta ahamiyatga ega. Biologiya o'qituvchi biologik bilimlarning har bir inson hayoti va mehnatidagi rolini chuqur anglashi, bunga ishonch hosil qilishi lozim, bu shunday ishonchni o'quvchilarda tarbiyalash uchun zarurdir.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarning kelajakda bilim olishida, kasb tanlashida, hayotda o'z o'rnini topishida, hamda maktab va oliy ta'limdagi faoliyatida ham katta o'rin tutadi. Bu boradagi masalalar hozirgi kunda o'quvchi yoshlarni xalqaro PIRL, PIZA kabi baholash dasturlari asosida baholash jarayonida yoki ishtirokidagi kuzatuvlarda ham namoyon bo'lib qolmoqda.

Barchamizga ma'lumki PIRL xalqaro baholash dasturi asosida yuqori o'rinni Rossiya davlati egallab kelmoqda, ushbu ma'lumot yuzasidan Rossiyadagi ayrim maktablarda yuqori natijaga erishgan o'quvchilarni erishgan yutug'i taxlil qilinganida ularning 90%i 3-5 yoshidan maktabgacha ta'lim muassasasiga borgan bolalar bo'lib chiqqan. Bundan tashqari bu yoshdagi bolalarda oilada kitobga qiziqtirish, muntazam kitob o'qib berish holatlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgani ma'lum bo'ldi. Shu nuqtai nazardan biz ham ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishda birinchidan maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni ertaroq (2-3) yoshdan jalb etishimiz, ikkinchidan esa maktabgacha muassasalarida ta'lim sifatini ham oshirishimiz muhim sanaladi.

Shu nuqtai nazardan maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiiy fanlarni o'qitishda tabiatga tegishli bo'lgan qiziqarli topshiriqlar, rolli o'yinlar, o'yin mashqlari, kreativ topshiriqlar berish orqali ham o'quv mashg'ulotlarni qiziqarli tarzda tashkil etish lozim.

Hozirgi vaqtda ta'limdagi yangi innovatsion texnologiyalardan, interfaol metodlardan kreativ yondashuv asosida foydalanish ta'limning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Kreativ topshiriqlar bolalar diqqatini jamlashda, tasavvurini boyitishda, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va o'quv jarayonlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bunda tabiatga oid turlicha noodatiy rasmlarni nomlash, chizish, tasvirlash kabi yoki qiziqarli savollar berish orqali ham tashkil etish mumkin: masalan; Dunyoda yo'q hayvonni rasmini chizib keling., o'zingizni qaysi gulga yoki daraxtga o'xshatasiz va nima uchun? o'zingizni qaysi gulga o'xshatsangiz usha gulni rasmini chizib keling., Siz gumbak ichidagi qurtsiz, his hayajoningizni yozib keling., Siz bir kunlik kapalaksiz, tasavvuringizni yozib keeling? kabi topshiriqlar berish maqsadga muvofiqdir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarga dars jarayonlarida muvaffaqiyatli ish olib borishining birinchi sharti shuki, tarbiyalovchi

ta'lim jarayoni ishonchga asoslanadi, bunda biologiya o'qituvchisi o'zining kasbiy mahoratini namoyon qilishi ya'ni o'quvchilarga har bir inson tabiatni o'rganish zarurligini singdirishi lozim, bu uchun esa yuqori saviyadagi bilim va mustahkam irodani talab etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni olib borishda innavatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayonidagi uzviylikni rivojlantirishda muhim sanaladi.

Biologiya fanlarini o'qitishda bir qator interfaol metodlardan – “Assisment”, “Keys stadi”, “Aqliy hujum”, “Insert” va “Organayzerli” hamda “Enerjayzerli”, “Charxpalak”, “Baliq skeleti” metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ayniqsa o'quvchi – yoshlarning aqliy qobiliyatini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasi ahamiyatlidir. Masalan, “Aqliy hujum” metodidan foydalanish jarayonida masalan, botanika darslarida “Novda mavzusini” o'tishda o'quvchilarga quyidagicha aqliy hujum savolini berishimiz mumkin; - Terak daraxtini barchamiz bilamiz va ko'rganmiz. Terakning bo'yi 20-30 metrcha keladigan baland bo'yli daraxtdir. Lekin terak bo'yi baland bo'lsada undan ko'pincha qurilish material sifatida foydalanilmaydi, xo'sh, unda nima uchun terak qishloqlarimizda juda ko'p ekiladi?

O'quvchilar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rgangan va bilimlari va tasavvurlari asosida ushbu muammoli savollarga turlicha javob beradilar, ya'ni terakning bir qator boshqa foydali xususiyatlarini ham sanab o'tadilar. Boshlangich ta'limdan o'rta ta'limga o'tgach Tabiiy fanlar darslarida yanada murakkabroq muammoli savollar, masalan munozarali darslar tashkil etish yoki keys stadi savollari berish orqali ularning fikrlash qobiliyatlarini yanada rivojlantirish mumkin.

Bugungi zamonaviy ta'limni interfaol metodlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dars mazmunini ochib beruvchi faol usullar o'quvchilarga ham o'qituvchiga ham amaliy ko'makchi vazifasini o'tamoqda. An'anaviy darsdan farqli o'laroq, metodlar dars jarayoniga jon kiritib, eng muhimi o'quvchi ongini o'stirmoqda. Endi o'quvchilar sherigining soyasida soyalab emas, o'z nuqtai nazarini ommaga yetarlicha bayon eta olayapti.

Demakki, interfaol usullar darsning jon tomiriga aylanib bormoqda. “Chaxpalak” metodi.

1. Kichik guruhning (4-5 kishidan iborat) har bir ishtirokchisiga toza oq varaq beriladi va bir xil savol beriladi (masalan “jinsiy demorfizm hodisasi nima”) (zarur bo'lganda o'qituvchi guruhning har bir ishtirokchisi uchun turli savollarni tayyorlashi va taklif qilishi mumkin). Barcha ishtirokchilar og'zaki fikr almashmasdan, o'zlarining varaqlarida savollarga bo'lgan javoblarni o'zlari mustaqil ifodalar yozadilar.

2. Ifodalar yozilgan varaqlar har 2 daqiqada soat millarining harakati bo'yicha kichik guruhlardagi qo'shnilariga uzatiladi (har bir qo'shni guruh ifodalarni yozishda

har xil rangli ruchkalardan foydalanishi maqsadga muvofiq masalan 1 – guruh qizil rangda, 2 – guruh ko'k rangda, 3 – guruh yashil rangda va hokazo). Bunday varaqni olgan o'quvchilar varaqda mavjud ma'lumotlarni takrorlamasdan yangi ma'lumotlarni yozishi kerak bo'ladi. Har bir guruhning varag'i o'ziga qaytib kelgandan so'ng ish yakunlanadi. 3. Guruhlardagi ishtirokchilar tomonidan yozilgan har bir ma'lumotlar muhokamasi o'tkazilib, ularning eng muhimlari va takrorlanmagan ma'lumotlar haqida mulohaza yuritiladi va o'qituvchi tomonidan doskaga har bitta guruhning ma'lumotlari haqidagi boshqa guruh ishtirokchilarining fikrlari asosida guruhlar baholab boriladi. Hamda g'olib jamoa aniqlanadi.

Dars mavzusi bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, mustahkamlansa, faol metodda dars mavzusi bo'yicha mustaqil fikrlash, xulosaga kelish, ularni bayon qilish, himoyalashga o'rgatiladi.

Uchinchidan, o'qituvchining vazifalari Yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, nazorat, topshiriqlar berishdan iborat bo'lsa, noan'anaviyga o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini va taqdimotlarini tashkil qilish, boshqarish, nazorat, yakuniy xulosalarni asoslab beriladi.

To'rtinchidan, Darsga tayyorgarlikka dars rejasi, konspekt va didaktik vositalarni tayyorlash kabi talablar qo'yilsa, interfaol metodda Interfaol dars ishlanmasi, mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, tarqatma materiallar, boshqa zarur vositalarni tayyorlanadi. O'quvchilar tayyorgarligi esa, oldingi dars bo'yicha vazifalarni bajarib kelish talablari berilsa, yangi metodda yangi dars mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilish talabi qo'yiladi.

Xulosa.

O'qituvchi – o'quvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi va shu bilan birga biologik ta'lim jarayonida ham butun yosh avlodni tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishga olib keladi, unga nisbatan uzini tarbiyalaydi, tabiatning chiroyini idrok etishdan tashqari uni muhofaza qilish, asrash, tabiat boyliklarini o'z qo'llari bilan yaratish va ko'paytirishga o'rgatadi, zamonaviy texnologiyalar, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari izlab topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Biologiya fanlarini o'qitishda yangicha innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish ta'limning asosiy jihatlaridan biridir, xususan interfaol metodlar – keys stadi, insert, baliq skeliti, bumerang kabi bir qator metodlar dars jarayonini noananaviy tarzda tashkil etishda samarali o'rin tutadi.

Har bir dars jarayonini to'g'ri tashkil eta olish o'qituvchi uchun juda muhimdir. Va albatta o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash ularda yangidan- yangi ko'nikmalarni hosil qilishda ta'lim metodlaridan foydalanish samarali bo'ladi va bu

bilan yuqori natijalarga erishish mumkin. Hamda, o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqishning ortishiga ham sababdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov, Biologiya ta'lim texnologiyalari.- T.: O'qituvchi, 2002.
2. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov, Biologiya o'qitish metodikasi. O'quv- metodik qo'llanma.- T.: "Bilim" 2004.
3. Sh.R.Nurmatova, D.A.Boltayeva, Interfaol metodlardan biologiyani o'qitishda foydalanish. Maqola , 2022
4. Z.Abdunazarova, Biologiya fanini o'qitishda interfaol usullarni qo'llash. Maqola 2021
5. Golish L.V, Fayzullayeva D.M, Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. "Iqtisodiyot", 2012
6. J.O.Tolipova "Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar" Pedagogika oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. Toshkent - "Cho'lpon" – 2011 y.
7. Abduquddusov O.A.Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda o'quv maliyotining o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent 2016 yil 30-b